

Sherzod RAXIMOV,

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirigi Professional ta'limni rivojlantirish instituti boshqarma boshlig'i, s.f.f.d (PhD), dosent

E-mail: sherikshox@bk.ru

Tel:94-653-96-25

T.f.n. B.Shoyqulov taqrizi ostida

ELEKTRON DEMOKRATIYANING MEZON VA KO'RSATKICHLARI

Annotatsiya

Maqolada fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, elektron demokratiyani rivojlantirish jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining roli, elektron demokratiyaning mazmun mohiyati, ijtimoiy masalar muhokamasi va qarorlar qabul qilish, elektron demokratiyaning mezonlari va ko'rsatkichlari, siyosiy faollikni oshirishda axborot kommunikatsion texnologiyalar va onlayn platformalarning o'rni kabi masalalar to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Elektron demokratiya, ijtimoiy tarmoqlar, siyosiy faollik, axborot texnologiyalari, siyosiy-ijtimoiy jarayonlar, OAV, elektron demokratiya mezonlari.

CRITERIA AND INDICATORS OF ELECTRONIC DEMOCRACY

Annotation

The article contains information on issues such as the participation of citizens in social and political processes, the role of civil society institutions in the development of e-democracy, the content of e-democracy, the discussion of social issues and decision-making, the criteria and indicators of e-democracy, the role of information and communication technologies and online platforms in increasing political activity. given

Key words: E-democracy, social networks, political activity, information technologies, political-social processes, mass media, e-democracy criteria.

КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ ЭЛЕКТРОННОЙ ДЕМОКРАТИИ

Annotatsiya

В статье содержится информация по таким вопросам, как участие граждан в социальных и политических процессах, роль институтов гражданского общества в развитии электронной демократии, содержание электронной демократии, обсуждение социальных проблем и принятие решений, критерии и индикаторы электронной демократии, роль информационно-коммуникационных технологий и онлайн-платформ в повышении политической активности.

Ключевые слова: Электронная демократия, социальные сети, политическая деятельность, информационные технологии, политико-социальные процессы, средства массовой информации, критерии электронной демократии.

Kirish. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va islohotlar fuqarolarning faol bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Shuningdek, Qonun ijodkorligi va parlament nazoratini amalga oshirishning amaldagi mexanizmlarini samaradorlik nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish, mazkur jarayonlarda fuqarolarning ishtirokini ta'minlash orqali jamoatchilikning davlat boshqaruvidagi tashabbuskorligini oshirish, "Elektron parlament" doirasida deputatlarni o'z saylovchilari bilan, senatorlarni hududlardagi fuqarolar bilan bog'lash, ular bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot olib borish, saylovchilarni qiynayotgan muammolarni muhokama qilish va hal etish jarayonini raqamlashtirish kabi masalalar keyingi besh yillikda ustuvor vazifalar sifatida belgilandi [8].

Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtiroki odatda demokratiyaning hayotiy yo'nalishi sifatida ko'rsatiladi. Keyingi yillarda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish maqsadida vakillik organlariga saylovning aralash (majoritar-proporsional) tizimini joriy qilish masalasi ham davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib [8], bu jarayonlarni bugungi kundagi elektron demokratiyani rivojlantirish orqali o'tish maqsadga muvofiqdir.

Elektron demokratiya natijasida fuqarolar o'z jamiyatida, hududida, mamlakatida yoki global miqyosda fikrlarini bildirish va qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Elektron demokratiyaga televideniya va radio kabi eski texnologiyalar orqaligina emas internet, mobil telefonlar va elektron ovoz berish tizimlari kabi yangi texnologiyalar orqali erishish mumkin. Ushbu yangi texnologiyalar keng tarqalgan ishtirokchi vositalardir. Ko'p sonli manfaatdor tomonlar ma'lumotlarga kirishlari va internet orqali to'g'ridan-to'g'ri kiritishlari mumkin. Katta guruhlar, shuningdek, elektron so'rov asbob(tarmoq va platforma)lari orqali ommaviy yig'ilishlarda real vaqt rejimida ma'lumotlarni taqdim etishlari mumkin bo'ladi.

Elektron demokratiyaning afzalliklari

-rejalashtirish va qaror qabul qilishga ta'sir qilish uchun veb-saytda, elektron pochta orqali yoki boshqa elektron aloqa vositalari orqali o'z fikrlarini bildirishga ko'proq jamoatchilik a'zolarini jalb qilish mumkin;

-turli taklif va masalalar yuzasidan qaror qabul qiluvchi organlarga yuboriladigan fikr-mulohazalar orqali o'z demokratik huquqlaridan foydalanadigan shaxslar soni va turlarini ko'paytiradi;

-fuqarolar o'zaro muloqot qilishlari, muammolarni muhokama qilishlari va fikr almashishlari mumkin bo'lgan virtual jamoat maydonini yaratadi;

-fuqarolar uchun o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda muxokama jarayonlarida qatnashish imkonini beradi;

-qulaylik va kam xarajat bilan juda katta auditoriyaga kirishi mumkin bo'ladi;

-interaktiv muloqotni osonlashtiradi;

-katta hajmdagi ma'lumotlarni tez, samarali va buzmasdan tarqatadi.

Mavjud muammolar:

-onlayn bo'lmaganlar ishtirokini istisno qilishi mumkin;

-natijalarni manipulyatsiya qilish mumkin, shuning uchun onlayn so'rovlar natijalarini diqqat bilan ko'rib chiqish kerak;

-ma'lumot kiritishning katta miqdorini sintez qilish va tushunish uchun katta vaqt va kuch talab qiladi;

-avtomatik javob beradigan serverlar ro'yxatidan saqlanish lozim, ko'plab faol obunachilarga ega elektron pochta ro'yxatlari shunchalik ko'p ma'lumot yaratadiki, ular insonlarni chalg'itishi mumkin.

Muvaffaqiyatli rejalashtirish tamoyillari:

-muhokama uchun quyiladigan loyiha haqida ma'lumot beruvchi batafsil veb-sayt yaratish va kiritilgan ma'lumotlardan xabardor bo'lishni ta'minlash;

-saytni yaxshi tashkil etilgan va yangilangan holda saqlash;

-saytni iloji boricha inklyuziv qilish uchun standart HTML formatidan foydalanish;

-obuna bo'lish/obunani bekor qilish tartib-qoidalarini tafsilotlarini taqdim etish;

-vab-sayt orqali o'z onlayn muloqotingizni o'rnatish;

-saytga tashrif buyurgan insonlar sonini hisoblash, qancha odamni tashvishlantirayotganini va jamiyatni qanday muammolarga qiziqtirayotganini bilishi kerak bo'lgan foydali ma'lumotlarni taqdim etadi.

Shvesiyaning Gyoteborg universiteti huzuridagi "V-Dem instituti[10]" tomonidan 2023 yilda o'tkazilgan tadqiqotga muvofiq[3] "elektoral demokratiya indeksi" ko'rsatkichida Daniya, Shvesiya, Norvegiya, Shvesariya, Estoniya, Yangi Zelandiya, Belgiya, Islandiya, Kosta rika, Finlandiya, Avstraliya, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Ispaniya, Chexiya, Slovakiya, Italiya kabi davlatlardan so'ng 20-o'ringa Buyuk Britaniya (0.84) o'rin olgan bo'lsa, O'zbekiston(0.22) ushbu ko'rsatkichda 142-o'ringandan joy egallan. Ushbu ro'yxatda qatnashgan mamlakatlar soni 179 tadan iborat.


TABLE 3. COUNTRY SCORES FOR THE LIBERAL DEMOCRACY INDEX (LDI) AND ALL COMPONENTS INDICES, 2022

↑ Indicates that the country's score has improved over the past 10 years, substantively and at a statistically significant level
 ↓ Indicates that the country's score has decreased over the past 10 years, substantively and at a statistically significant level
 SD+/- reports the standard deviation to indicate the level of uncertainty

COUNTRY	LIBERAL DEMOCRACY INDEX (LDI)			ELECTORAL DEMOCRACY INDEX (EDI)			LIBERAL COMPONENT INDEX (LCI)			EGALITARIAN COMPONENT INDEX (ECI)			PARTICIPATORY COMPONENT INDEX (PCI)			DELIBERATIVE COMPONENT INDEX (DCI)		
	RANK	SCORE	SD+/-	RANK	SCORE	SD+/-	RANK	SCORE	SD+/-	RANK	SCORE	SD+/-	RANK	SCORE	SD+/-	RANK	SCORE	SD+/-
Denmark	1	0.89	0.04	1	0.92	0.036	2	0.98	0.012	2	0.97	0.024	5	0.71	0.018	5	0.97	0.637
Sweden	2	0.87	0.042	3	0.9	0.038	1	0.98	0.011	13	0.9	0.044	27	0.65	0.026	23	0.9	0.626
Norway	3	0.86	0.045	4	0.9	0.041	4	0.97	0.018	1	0.97	0.024	28	0.65	0.018	1	0.99	0.64
Switzerland	4	0.85	0.044	2	0.9	0.038	8	0.96	0.025	6	0.93	0.04	1	0.88	0.02	2	0.98	0.645
Estonia	5	0.85	0.045	5	0.89	0.04	6	0.96	0.021	17	0.89	0.053	38	0.63	0.037	48	0.83	0.634
New Zealand	6	0.83	0.046	8	0.89	0.039	11	0.95	0.025	19	0.88	0.056	6	0.71	0.04	33	0.88	0.63
Belgium	7	0.83	0.046	6	0.89	0.041	14	0.94	0.031	5	0.93	0.038	30	0.65	0.025	17	0.92	0.636
Ireland	8	0.82	0.048	7	0.89	0.04	15	0.93	0.033	18	0.89	0.052	26	0.65	0.039	18	0.92	0.637
Costa Rica	9	0.82	0.047	12	0.87	0.042	9	0.96	0.023	20	0.88	0.054	14	0.67	0.033	7	0.96	0.634
Finland	10	0.82	0.05	13	0.86	0.046	5	0.96	0.023	11	0.91	0.043	25	0.65	0.02	10	0.93	0.634
Australia	11	0.81	0.048	14	0.86	0.045	3	0.97	0.019	31	0.84	0.061	18	0.66	0.044	13	0.93	0.635
Germany	12	0.81	0.047	15	0.86	0.043	7	0.96	0.021	4	0.94	0.038	15	0.66	0.012	3	0.98	0.629
France	13	0.8	0.05	10	0.88	0.043	18	0.92	0.033	26	0.85	0.061	40	0.63	0.038	11	0.93	0.637
Netherlands	14	0.8	0.049	17	0.85	0.045	10	0.96	0.023	14	0.9	0.046	48	0.61	0.04	6	0.96	0.639
Luxembourg	15	0.79	0.05	9	0.88	0.042	26	0.91	0.04	3	0.95	0.039	58	0.59	0.066	4	0.97	0.637
Spain	16	0.79	0.048	11	0.87	0.039	24	0.91	0.041	40	0.8	0.069	29	0.65	0.032	30	0.88	0.629
Czech Republic	17	0.79	0.049	16	0.86	0.043	16	0.93	0.031	12	0.91	0.05	57	0.59	0.047	35	0.87	0.63
Slovakia	18	0.78	0.051	20	0.85	0.048	17	0.93	0.03	39	0.81	0.066	17	0.66	0.046	92	0.66	0.626
Italy	19	0.77	0.05	21	0.85	0.045	19	0.92	0.033	7	0.93	0.041	4	0.76	0.033	15	0.92	0.64
United Kingdom	20	0.77	0.051	22	0.84	0.047	21	0.92	0.032	34	0.83	0.069	20	0.66	0.028	39	0.87	0.631
Chile	21	0.76	0.051	30	0.81	0.049	12	0.95	0.022	60	0.72	0.076	24	0.65	0.04	8	0.96	0.638
Portugal	22	0.76	0.051	18	0.85	0.045	31	0.89	0.04	27	0.85	0.06	42	0.62	0.04	31	0.88	0.63
USA	23	0.74	0.055	27	0.82	0.051	22	0.92	0.035	74	0.66	0.086	19	0.66	0.015	36	0.87	0.634
Canada	24	0.74	0.056	19	0.85	0.047	38	0.87	0.048	51	0.76	0.075	22	0.65	0.024	50	0.83	0.63
Latvia	25	0.74	0.057	26	0.82	0.052	28	0.9	0.043	30	0.84	0.062	16	0.66	0.043	46	0.84	0.629
Lithuania	26	0.73	0.057	35	0.79	0.055	13	0.95	0.025	22	0.86	0.055	7	0.7	0.043	55	0.8	0.624
Japan	27	0.73	0.052	23	0.83	0.046	35	0.88	0.044	8	0.93	0.044	75	0.57	0.052	22	0.9	0.63
Guinea	151	0.1	0.021	148	0.19	0.019	150	0.27	0.017	142	0.39	0.084	94	0.54	0.064	155	0.22	0.634
Eswatini	152	0.1	0.02	171	0.12	0.015	137	0.32	0.073	174	0.19	0.074	152	0.26	0.097	168	0.11	0.646
UAE	153	0.09	0.016	172	0.11	0.018	147	0.3	0.059	117	0.5	0.083	175	0.09	0.058	144	0.29	0.634
Qatar	154	0.08	0.017	174	0.09	0.016	146	0.3	0.063	146	0.36	0.051	177	0.07	0.043	137	0.39	0.625
Uzbekistan	155	0.08	0.015	142	0.22	0.023	158	0.2	0.046	131	0.45	0.089	170	0.13	0.057	129	0.47	0.621
Palestine/Gaza	156	0.08	0.017	166	0.14	0.017	153	0.26	0.062	103	0.57	0.096	131	0.41	0.087	154	0.22	0.645
Burundi	157	0.08	0.017	149	0.19	0.018	156	0.21	0.058	155	0.31	0.09	156	0.24	0.097	157	0.21	0.641
Sudan	158	0.07	0.016	158	0.17	0.018	157	0.21	0.056	156	0.31	0.092	153	0.26	0.076	162	0.17	0.654
Russia	159	0.07	0.014	145	0.21	0.022	160	0.17	0.043	133	0.44	0.092	130	0.41	0.06	158	0.18	0.636
Cambodia	160	0.06	0.014	146	0.21	0.02	165	0.15	0.045	167	0.25	0.08	140	0.33	0.06	164	0.16	0.625
Venezuela	161	0.06	0.013	143	0.21	0.02	167	0.14	0.042	158	0.28	0.082	117	0.46	0.065	176	0.06	0.639
Azerbaijan	162	0.06	0.012	150	0.19	0.017	163	0.16	0.039	160	0.28	0.074	168	0.14	0.049	169	0.1	0.639
South Sudan	163	0.06	0.016	168	0.13	0.012	159	0.18	0.058	177	0.1	0.051	164	0.15	0.057	171	0.1	0.636
Cuba	164	0.06	0.013	152	0.18	0.016	166	0.14	0.045	55	0.75	0.075	154	0.26	0.078	147	0.28	0.629
Bahrain	165	0.06	0.013	170	0.12	0.017	162	0.17	0.049	143	0.39	0.068	173	0.1	0.052	156	0.21	0.631
Equatorial Guinea	166	0.05	0.012	157	0.17	0.013	170	0.13	0.043	150	0.34	0.083	171	0.12	0.051	170	0.1	0.639
Tajikistan	167	0.05	0.011	155	0.18	0.014	171	0.12	0.04	173	0.19	0.066	169	0.13	0.046	165	0.14	0.625
Myanmar	168	0.05	0.014	173	0.09	0.011	164	0.16	0.054	169	0.24	0.079	139	0.33	0.062	153	0.22	0.641
Yemen	169	0.04	0.013	169	0.12	0.015	169	0.13	0.047	178	0.06	0.039	158	0.22	0.056	175	0.07	0.637
Saudi Arabia	170	0.04	0.012	179	0.02	0.007	161	0.17	0.049	137	0.43	0.069	174	0.1	0.057	152	0.25	0.638
Belarus	171	0.04	0.01	156	0.18	0.016	173	0.09	0.033	57	0.74	0.083	162	0.15	0.054	173	0.08	0.637
China	172	0.04	0.01	177	0.08	0.005	168	0.14	0.04	152	0.33	0.083	163	0.15	0.055	146	0.28	0.632
Turkmenistan	173	0.04	0.01	163	0.15	0.009	175	0.08	0.035	164	0.27	0.073	176	0.07	0.034	177	0.04	0.649
Nicaragua	174	0.03	0.008	163	0.18	0.015	177	0.06	0.028	170	0.23	0.082	137	0.35	0.059	178	0.04	0.643
Syria	175	0.03	0.01	155	0.14	0.006	174	0.08	0.037	175	0.16	0.059	165	0.15	0.056	172	0.09	0.637
Chad	176	0.03	0.008	164	0.14	0.017	176	0.07	0.029	172	0.21	0.071	146	0.28	0.067	143	0.33	0.621
Afghanistan	177	0.03	0.012	176	0.08	0.008	172	0.09	0.045	179	0.05	0.036	178	0.05	0.04	174	0.08	0.649
Eritrea	178	0.01	0.005	178	0.07	0.005	178	0.03	0.018	127	0.47	0.1	179	0.03	0.027	167	0.11	0.63
North Korea	179	0.01	0.005	175	0.09	0.01	179	0.02	0.019	154	0.31	0.078	166	0.15	0.033	179	0.02	0.643

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni aniqlashda "keng fikrlar erkinligi" – ya'ni media va ommaviy axborot vositalariga berilgan erkinlik, erkak va ayolning erkinligi, "saylov huquqiga ega aholi ulushi", "tashkilotlarning erkinligi" – partiyalar, oppozitsion partiyalar, "aniq elektron ko'rsatkich" – saylov erkinligi, saylov ro'yxatidan o'tkazilishi, elektron ovozlarni sotib olish imkoniyati kabi ko'rsatkichlar orqali aniqlangan.

FIGURE A2.2. THE V-DEM ELECTORAL DEMOCRACY INDEX (EDI)



Elektoral demokratiyani aniqlash bo'yicha mezonlar

Fuqarolarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi do'stlik yoki qo'llab-quvvatlashdan tortib, kelishmovchilik va tajovuzgacha bo'lgan turli xil his-tuyg'ularni uyg'otadi. Ularning xulq-atvori va ijtimoiy tarmoqlarning ta'sir turini ma'lum darajada ijtimoiy tarmoqlar turiga, shuningdek foydalanuvchilar tashkil etuvchi segmentga qarab taxmin qilish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar turli populyatsiyalarga turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ular quyidagi sohalarda ta'sir mavjudligini ko'rsatadi:

-marketing, turizm, atrof-muhit, salomatlik, ruhiy salomatlik va hissiyotlar, emlash bilan bog'liq masalalar, siyosat va hukumat, IT, inqiroz va ofatlarni boshqarish, tashkilotlar va korxonalar.

Axborot texnologiyalari va ijtimoiy media biznesni umuman o'zgartirdi va onlayn jalb qilishning yangi modeli bosh direktorlar va menejerlarning qaror qabul qilish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Jamiyat hayotining barcha jabhalariga Ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ular rivojlanishi bilan kuchayib, chuqurlashib bormoqda. Ijtimoiy media bolalar va yoshlar o'yin o'ynaydigan platformalardan professional ish qidirish tarmoqlarigacha uzoq yo'lni bosib o'tdi. Bu yo'lda ularning ta'siri, ayniqsa, tadbirkorlik sohasida o'sib, chuqurlashib bordi. Odamlarning fikrlash tarziga ta'sir qilish ham qaror qabul qilish jarayonini buzishi mumkin. Xavotirga soladigan narsa shundaki, bu ta'sir kuchayishda davom etmoqda va bu xodimlar yoki korxonalar uchun ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda korxonalar o'z iste'molchilariga ijobiy ta'sir ko'rsatish va ular bilan muloqotni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning yuqori boshqaruvga ta'siri to'g'ri boshqarilishi kerak. Qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etayotgan mutaxassislar bu ta'sirni bilishlari, fikr va munosabatlarni shakllantirishda ham, kasbiy faoliyatida ham uni to'g'ri boshqarishlari kerak. Ijtimoiy tarmoqlar qaror qabul qiluvchilarga qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida chuqurroq tadqiqotlar o'tkazish zarur, chunki bunday tadqiqotlar yetishmayapti[4].

Bugungi kunda elektron demokratiyaning yana bir asosiy ko'rsatkichi bu elektron hukumatdir. "Elektron hukumat" deganda davlat organlari oldida turgan vazifalarni hal etish usullarini o'zgartirish uchun yaratilayotgan axborot tuzilmasi tushuniladi. Dastlab davlat sektorlari axborot texnologiyalarini alohida departament va tashkilotlarda ichki foydalanish uchun qo'llagan bo'lsa, endilikda axborot texnologiyalari katta qiymatga ega bo'lib, "tezkor, yaxshi, arzon, murojaat etish mumkin bo'lgan" tamoyillariga asoslangan holda faoliyat yuritmoqda.

Davlat organlari faoliyatida aholi uchun AKTni joriy etish orqali davlat boshqaruvining yangi imkoniyatlari yaratiladi. Elektron hukumatning ikki muhim vazifasidan birinchisi hukumat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar; ikkinchisi turli darajadagi davlat tashkilotlari (markaziy, hududiy, mahalliy) va turli sohalardagi (qonunchilik, ijro, sud hokimiyati) idoralar o'rtasidagi ichki munosabatlarni mustahkamlaydi.

Elektron hukumat - shakllangan davlat xizmatlari haqidagi ma'lumot va xizmatlarni aholiga, bank, biznes va davlat organlari shaxobchalariga, idora va tashkilot rahbarlariga yetkazadi; axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanib, buyurtmachi va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masofasini mumkin qadar qisqartiradi.

Tizimni yo'lga qo'yishdan maqsad: aholi va tijoratga hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni optimallashtirish; barcha saylovchilarning davlatni boshqarish va rahbarlik jarayonidagi ishtiroki darajasini oshirish; fuqarolarning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish; fuqarolarning texnologik ta'minlanganligini ko'tarish; davlat boshqaruvida sarf-xarajatlarni kamaytirish, siyosiy tizimning samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashdan iborat. Ushbu masalalarning yechilishi esa, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari samaradorligini oshirib, ularga bog'liq sarf-xarajatlarni kamaytiribgina qolmasdan, jamiyat bilan hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tubdan yaxshilaydi. Bu, o'z navbatida, jamiyatni modernizatsiyalashuvi va davlatning xalq oldidagi mas'uliyatini yuqori pog'onaga ko'tarish demakdir[5].

Elektron hukumat tizimi natijasida davlat va jamiyat munosabatlarini muvofiqlashtirish, o'zaro elektron muloqot va kelishuvlar tufayli siyosiy qarama-qarshiliklarni barham toptirish, hukumatga bo'lgan xalq noroziligini kamaytirish imkoniyati vujudga keladi. O'zbekistonda davlat va jamiyat tashkilotlari faoliyatida elektron hukumatning joriy etilishi jarayoni uch bosqichda sodir bo'ladi. Birinchi bosqichda AKT vositasi davlat organlari axborotlariga tashkilot, korxonalar va fuqarolarning murojaatini ko'rishni tezlashtiradi va aniq manzilini belgilaydi. Uni amalga oshirish uchun davlat organlari o'z veb-saytlarini yaratadi, ularga qonunchilik va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ularning kerakli shakllari, statistik va iqtisodiy ma'lumotlar kiritib boriladi. Bu bosqichning asosiy elementi ma'lumotlarning tez yangilanishi hamda barcha davlat axborot resurslarini jamlab, "Yagona darcha" orqali murojaatni ta'minlovchi davlat veb-portalining mavjudligidir.

Ikkinchi bosqichda davlat xizmatlari (ko'chmas mulk va yer maydonlarini ro'yxatga olish, soliq deklaratsiyalarini to'ldirish, ruxsatnoma olish uchun arizalar berish va boshqalar) onlayn rejimida taqdim etiladi. Mazkur bosqichga o'tish byurokratik to'siqlarga barham beradi, murakkab jarayonlar soddalashadi, tashkilot rahbarlari bilan bevosita muloqotlar paydo bo'ladi. Bu bosqichda hukumat organlariga elektron shaklda (e-services) "Yagona oyna" orqali haftaning 7 kuni va kunning 24 soati mobaynida xizmat ko'rsatiladi.

Uchinchi bosqichda davlat boshqaruvining barcha bosqichlarida, davlat siyosatini ishlab chiqishning jamiki jarayonlarida oddiy fuqarolar va firmalar rahbarlarining siyosatchilar va rahbarlar bilan interaktiv munosabatlari ta'minlanadi. Bu ishlar asosan veb-forumlari orqali amalga oshirilib, qonunchilik dalolatnomalari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari, taklif va tavsiyalar jamlanib, qizg'in muhokama etiladi. Olimlar va soha mutaxassislari elektron hukumatni ikki ma'noda talqin qilishadi: birinchisi,

yangi axborot texnologiyalari asosida davlat boshqaruv faoliyatini takomillashtirish va aholiga samarali xizmat ko'rsatishni ta'minlash; ikkinchisi, idoralar, tashkilotlararo munosabatlar usulini modernizatsiyalash (zamonaviylashtirish), davlat boshqaruvining jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini to'liq yo'lga qo'yish.

Elektron hukumat tizimini rivojlantirishda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali muhim o'rin tutadi (my.gov.uz). Jumladan, 2023 yil oktyabr holatida portal orqali 82,9 millionta ariza kelib tushgan. Yagona portalning ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilari soni 5.1 millionga yetgan. Bugungi kunda Yagona portal orqali 505 ta davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda[6].

Jamiyatni modernizatsiyalash, demokratlashtirishni rivojlantirishda elektron hukumat tizimining xizmati quyidagicha bo'lmoqda: ma'muriy boshqaruv sarf-xarajati kamaydi va ijro hokimiyati samaradorligi ko'zga tashlandi; jamiyat va hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mohiyati va shakli ijobiy tomonga o'zgardi; demokratiyani takomillashtirishga imkoniyatlar yaratildi va xalq oldida davlatning mas'uliyati, javobgarligi oshdi.

Xulosa. "Aholining elektron hukumat tizimi yordamida mahalliy boshqaruv faoliyatida ishtirok etishi hukumatni bir guruh kishilar qo'lida bo'lib qolish va korrupsiyalashish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi va boshqaruv xodimlarini yuklangan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishga undaydi. Fuqarolar o'z g'oya, fikrlarini boshqa fuqarolarga zarar yetkazmagan, milliy xavfsizlikka yoki jamoat tartibiga xavf tug'dirmagan holda, ommaviy tarzda ifoda qilish huquqlariga ega bo'ladi[5]."

Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan 2022 yilda 193 ta davlat ishtirokida o'tkazilgan "E-hukumatning rivojlantirish indeksi" so'rovnomasida Daniya (0.9717), Finlandiya, Koreya Respublikasi, Yangi Zelandiya, Islandiya, Shvetsiya, Avstraliya, Estoniya, Niderlandiya, AQSh kabi davlatlardan keyin 11-o'ringa (2020 yilda 7-o'ringa bo'lgan) Buyuk Britaniya (juda tez rivojlanish ko'rsatkichi 0.9138) joylashgan bo'lsa, O'zbekiston (2020 yilda 87-o'ringa bo'lgan) (tez rivojlanish 0.7265) 69-o'rindan joy olgan[7].

Xulosa. Jamiyatda elektron demokratiyaning keng joriy etilishi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yoki boshqa hayotiy muhim masalalardagi faoliyatini amalga oshirishda yengillik yaratadi, jamoat fikri asosida jamiyatdagi islohotlar amalga oshiriladi, turli korrupsiyaviy holatlar cheklanadi. Shuningdek, davlat, jamiyat va fuqarolar munosabatlarida vaqt va mablag' sarf-xarajatlari tejalandi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni
3. https://v-dem.net/documents/30/V-dem_democracyreport2023_highres.pdf
4. THE ROLE OF SOCIAL MEDIA IN THE DECISION-MAKING PROCESS /- Srđana Taboroši, Aleksandra Kovačević, Biljana Maljugić University of Novi Sad, Technical faculty "Mihajlo Pupin", Zrenjanin, Serbia (06.2022)
5. Омонов Бахтиёр Ахтамович Сиё. фан. док., проф. Янгиланган Ўзбекистонда модернизация жараёнида электрон хукуматнинг ўрни / Konsensus xalqaro jurnali /The international journal of consensus 2021 №3
6. [https://my.gov.uz/uz/site/statistic-page\(08.10.2023 y holatida\)](https://my.gov.uz/uz/site/statistic-page(08.10.2023%20y%20holatida))
7. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data-Center>
8. <https://lex.uz/docs/> (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони)
9. <https://lex.uz/docs/>(Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида"ги ПФ-158-сон Фармони)
10. Varieties of Democracy (демократия турлари) (V-Dem) 1789 yildan 2022 yilgacha бўлган davr mobaynida 202 ta mamlakat uchun 31 milliondan ortiq demokratiya bo'yicha eng yirik global ma'lumotlar to'plamini ishlab chiqaradi. Deyarli 4000 ga yaqin olimlar va boshqa mamlakat mutaxassislari, V-Dem ning yuzlab turli atributlarini o'lchaydi. V-Dem tabiati, sabablari va oqibatlarini o'rganishning yangi usullarini beradi.